

O'G'IRLIK JINOYATLARINING UMUMIY PROFILAKTIKASIDAGI IJTIMOY- PSIXOLOGIK OMILLAR VA UNING LATENT XUSUSIYATI

Atajanov O'tkir Mamatsalayeovich

Mustaqil tadqiqotchi

Kaipbaeva Zaxira Muratbaevna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim

3-o'quv kursi 317-gurux kursanti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'g'irlik jinoyatlarining umumiy profilaktikasi ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan, bo'lib xorijiy tadqiqotlarga asoslanib, jamiyatda "o'g'irlikka ko'nikish" xavfli sindromining paydo bo'lish sabablari va uning oqibatlari o'rganilgan, o'g'irlikning latent (yashirin) darajasini pasaytirish va profilaktika inspektorining obro'sini oshirish orqali jinoyatchilikni jilovlash mexanizmlari taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *o'g'irlik, latent jinoyatchilik, o'g'irlikka ko'nikish, jamoatchilik ishonchi, profilaktika inspektori, kriminologik prognoz.*

Annotation: *This article analyzes the general prevention of theft crimes from a socio-psychological perspective. Based on foreign research, the study examines the causes of the emergence and the consequences of the dangerous syndrome of "habituation to theft" in society. Mechanisms for curbing crime by reducing the level of latent (hidden) theft and enhancing the authority of the prevention inspector are proposed.*

Keywords: *theft, latent crime, habituation to theft, public trust, prevention inspector, criminological forecast.*

KIRISH

Zamonaviy kriminologiyada o'g'irlik jinoyati nafaqat o'zgalar mulkiga tajovuz qilish orqali moddiy zarar yetkazuvchi qilmish, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini izdan chiqaruvchi, aholining kundalik turmush tarzida xavotir va himoyasizlik hissini shakllantiruvchi o'tkir global muammo sifatida baholanadi. Xorijiy manbalar, xususan, MDH davlatlari (Rossiya, Gruziya) kriminologik maktablari vakillari (V.A.Minayev, I.M.Matskevich va b.) o'z tadqiqotlarida asoslaganidek, o'g'irlik jinoyatlarining surunkali tus olishi (retsdiv ko'rsatkichining ortishi) va eng asosiysi, ularning fosh etilish darajasining pastligi jamiyatda chuqur ijtimoiy tushkunlikni (depressiyani) yuzaga keltirib, fuqarolarda davlatning huquqni muhofaza qilish salohiyatiga nisbatan shubha va "huquqiy nigilizm"ni paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Ushbu jarayonning eng xavfli oqibati shundaki, u aholi orasida "o'g'irlikka ko'nikish" sindromini keltirib chiqaradi, natijada jabrlanuvchilar jinoyat haqida xabar berishni ma'nosiz deb hisoblay boshlaydilar va bu latent (yashirin) jinoyatchilikning nazoratdan chiqib ketishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish masalasi faqatgina ma'muriy nazoratni kuchaytirish bilan cheklanib qolmasligi lozim; aksincha, tizimga jinoyatchi shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga

oluvchi, umumiy profilaktikaning “sifat” va “jamoatchilik ishonchi” mezonlariga asoslangan, raqamlashtirilgan va ilmiy asoslangan innovatsion yondashuvlarni joriy etish davr talabidir.

Asosiy qism

Ilmiy-nazariy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, muayyan hududda mulkiy turdagi jinoyatlar, xususan, o'g'irliklar dinamikasining ortishi va ularning fosh etilish ko'rsatkichlari (koeffitsiyenti)ning pastligi jamiyatda “o'g'irlikka ko'nikish” (habituation to theft) deb nomlanuvchi xavfli ijtimoiy-psixologik fenomenning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Mazkur jarayonning kriminologik mohiyati shundaki, fuqarolarda davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasiga nisbatan “ishonchsizlik immuniteti” shakllanib, ular o'z mulklari tajovuzga uchraganda ichki ishlar organlariga murojaat qilishni samarasiz deb hisoblaydilar, bu esa o'z navbatida jinoyatchilikning latent (yashirin) qismini sun'iy ravishda oshirib, jinoyatchilarda “jazolanmaslik sindromi”ni va qayta jinoyat sodir etish motivatsiyasini kuchaytiradi hamda aholini o'z xavfsizligini ta'minlashning noqonuniy muqobil shakllarini izlashga undovchi destruktiv omil bo'lib xizmat qiladi.

O'g'irlik jinoyatlarining fosh etilmay qolganligi shunchaki raqam emas, balki minglab fuqarolarning tizimga bo'lgan ishonchiga putur yetganligining belgisidir. Demak, umumiy profilaktikani takomillashtirishda birinchi qadam latentlikka qarshi kurashish va har bir murojaatga real munosabat bildirishdir. Xorijiy kriminologik tadqiqotlar, xususan, V.M.Semenov o'g'irlik jinoyatining surunkali tus olishi jamiyatda “o'g'irlikka ko'nikish” (habituation to theft) deb nomlanuvchi xavfli ijtimoiy-psixologik fenomenning shakllanishiga olib kelishi asoslangan. Ushbu nazariyaga ko'ra, agar o'g'irliklar o'z vaqtida fosh etilmasa va jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar qoplanmasa, fuqarolarda davlatning himoya qobiliyatiga nisbatan ishonchsizlik (nigilizm) paydo bo'ladi. Natijada, aholi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishni to'xtatib, o'z xavfsizligini ta'minlashning muqobil (ba'zan noqonuniy) yo'llarini izlay boshlaydi. Bu esa jinoyatchilikning latent (yashirin) darajasini sun'iy ravishda oshirib yuboradi.

Shuningdek, o'g'irlik profilaktikasida shaharsozlik va iqtisodiy yondashuvlarning muhimligi ta'kidlanadi. Xususan, “shahar va qishloqlarda jamoat nazoratini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaharsozlik xatoliklarini bartaraf etish” (ko'chalarning yoritilmaganligi, binolarning joylashuvi) hamda aholining keskin tabaqalanishini yumshatishga qaratilgan “ish o'rinlarini kvotalash qonuniyligini nazorat qilish” mexanizmlari taklif etiladi. Bu shuni anglatadiki, profilaktika inspektori o'z hududida nafaqat huquqiy nazoratni, balki hudud infratuzilmasidagi kriminogen omillarni bartaraf etish bo'yicha mahalliy hokimiyat organlariga asoslantirilgan takliflar kiritish amaliyotini kuchaytirishi lozim.

O'g'irlik jinoyatlarining etiologiyasini tahlil qilish jarayonida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishning urbanistik va iqtisodiy determinatsiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'lib, bu yondashuv hududlarda jamoatchilik nazorati mexanizmlarining to'laqonli ishlashiga to'sqinlik qiluvchi infratuzilmaviy defektlarni (ko'cha yoritish tizimining

yetishmasligi, binolarning xaotik joylashuvi) bartaraf etish hamda aholi ijtimoiy stratifikatsiyasidagi keskin tafovutlarni yumshatishga qaratilgan iqtisodiy dasturlar ijrosini ta'minlashni ko'zda tutadi; mazkur imperativ profilaktika inspektori faoliyatini faqat ma'muriy-huquqiy nazorat bilan cheklamay, balki uning vakolatlarini hudud infratuzilmasidagi kriminogen omillarni neytrallashtirish bo'yicha mahalliy ijro hokimiyati organlariga ilmiy asoslangan takliflar (taqdimnomalar) kiritish orqali hududni ijtimoiy-iqtisodiy sog'lomlashtirish darajasiga ko'tarishni talab etadi.

MDH davlatlari kriminologiyasida, xususan, V.M.Semenov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'g'irlik jinoyatining umumiy profilaktikasidagi eng jiddiy xatolik sifatida profilaktik chora-tadbirlarning "an'anaviy" tus olib qolganligi ko'rsatiladi. Olimning ta'kidlashicha, o'g'irlikka qarshi kurashish vaqtinchalik "kampaniyalar" yoki mavsumiy tadbirlar orqali amalga oshirilganda, kutilgan uzoq muddatli barqarorlikka erishib bo'lmaydi. Bunday yondashuv faqat qisqa muddatli pasayishga olib kelishi mumkin, xolos.

O'g'irlik shunchaki alohida shaxsning xatti-harakati emas, balki muayyan ijtimoiy muhit mahsuli bo'lgan "kriminal tizim"dir. Shu bois, profilaktika inspektorining umumiy profilaktikadagi vazifasi jinoyatchini quvish bilan cheklanmasligi kerak. Asosiy e'tibor o'g'irlikni "kasb" sifatida shakllantirayotgan zanjirni uzishga qaratilishi lozim. Bu jarayonda, eng avvalo, jinoyatning ichki mantig'ini buzish talab etiladi. O'g'irlik o'z "ichki rivojlanish mantig'i"ga ega bo'lib, u jinoiy an'analar va retsidivistlarning ta'siri orqali yashaydi. Umumiy profilaktika aynan shu "jinoiy zanjir"ni, ya'ni o'g'irlangan narsalarni sotish kanallarini (bozorlar, lombardlar nazorati) va jinoiy guruhlarning shakllanish o'choqlarini yo'q qilishga qaratilishi shart.

O'g'irlik jinoyatlarining kriminologik determinatsiyasini tadqiq etish jarayonida "jinoyatchi shaxsi"ning ijtimoiy-psixologik tuzilishiga alohida urg'u berish lozim, zero shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy statusi, bajaradigan funksional rollari va axloqiy deformatsiyalari jinoiy xulq-atvor shakllanishining birlamchi indikatori hisoblanadi. Ilmiy manbalar, xususan, Gruziya kriminologik amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, o'g'irlik motivatsiyasi har doim ham faqat moddiy manfaatdorlik (tamagirlik) bilan cheklanmay, balki unda "o'yin motivi" ham muhim o'rin tutadi; bu holatda jinoyat sodir etish jarayoni subyekt uchun o'ziga xos psixologik ehtiyojni qondirish, ya'ni xavf-xatar va adrenalin olish vositasiga aylanadi, bu esa profilaktika inspektoridan standart tarbiyaviy choralar o'rniga maxsus psixologik korreksiya usullarini qo'llashni talab etadi. Shuningdek, o'g'irlik o'zining "ichki rivojlanish mantig'i"ga ega bo'lib, o'z vaqtida fosh etilmagan qilmish shaxsda "jazolanmaslik sindromi"ni va kriminal professionallashuvni keltirib chiqaradi, shu sababli profilaktik tizimni umumiy ijtimoiy (iqtisodiy barqarorlik, marginallashuvni kamaytirish) va maxsus kriminologik (tezkor-qidiruv, texnik qo'riqlash, kriminogen o'choqlarni neytrallashtirish) darajalarga qat'iy differentsiatsiya qilgan holda tashkil etish jinoyatchilikning latent qismini qisqartirishning eng samarali mexanizmi hisoblanadi.

Shuningdek, o'g'irlikning ildizi chuqur ijtimoiy jarayonlarga borib taqalganligi sababli ijtimoiy muhit nazorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Profilaktika inspektori hududdagi ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, ya'ni ishsizlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish va daydilik kabi holatlarga qarshi "tizimli" (kampaniyabozlikdan xoli) kurashish orqali o'g'irlik uchun qulay bo'lgan "ijtimoiy baza"ni yo'qotishi mumkin.

O'g'irlik "jinoyatchilikning o'zagi" O'zbekiston statistikasiga ko'ra, jinoyatchilarning 34,4 foizini 30 yoshgacha bo'lgan, kasbga ega bo'lmagan shaxslar tashkil etmoqda. Bu raqam shuni ko'rsatadiki, profilaktika inspektorlarining hozirgi ish uslubi o'g'irlikning asl sababi ijtimoiy marginallashtirish (ishsizlik, jamiyatdan uzilib qolish) bilan kurashishda samarasiz bo'lmoqda. Umumiy profilaktika choralari "o'g'ri shaxsi"ning tipologiyasi (tasnifi) inobatga olinmayapti. Ya'ni, tasodifiy o'g'ri bilan professional o'g'riga nisbatan bir xil profilaktik chora qo'llanilmoqda, bu esa kutilgan natijani bermasligi mumkin.

O'g'irlik jinoyatlarining oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish profilaktika inspektorlari faoliyatiga innovatsion va ilmiy asoslangan yondashuvlarni integratsiya qilishni taqozo etadi. Xususan, hududiy kriminogen vaziyatni raqamli monitoring qilish va prognozlash imkonini beruvchi "Hududning elektron kriminologik pasporti"ni joriy etish birlamchi vazifa hisoblanadi; mazkur hujjat oddiy statistik to'plamdan farqli o'laroq, mulkiy jinoyatlarning turlari (kvartira o'g'riligi, kiber-firibgarlik, chorva o'g'riligi) va ularning geolokatsion o'choqlarini chuqur tahlil qilish asosida kuch va vositalarni "qaynoq nuqtalar"ga (bozorlar, ko'p qavatli uylar) ratsional taqsimlash imkonini beruvchi strategik boshqaruv vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, profilaktika tizimining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tubdan transformatsiya qilish, ya'ni an'anaviy "miqdoriy ko'rsatkichlar" (tuzilgan ma'muriy bayonnomalar soni)dan voz kechib, "Aholi ishonch indeksi" va "Xavfsizlik darajasi" kabi sifat ko'rsatkichlariga o'tish lozim; bu yondashuv inspektor faoliyatini aholining o'zini qanchalik xavfsiz his qilayotgani va latent jinoyatlar haqida xabar berish faolligi orqali xolis baholash imkonini beradi. Uchinchi muhim yo'nalish — bu "differensial profilaktika" tamoyilini kuchaytirish bo'lib, u xavf guruhi (risk guruhi)dagi shaxslar, xususan, ishsiz yoshlar va muqaddam sudlanganlar bilan ishlashda faqat ma'muriy nazorat o'rnatish (xisobga olish) bilan cheklanmasdan, balki ularni maxsus "ijtimoiy reabilitatsiya markazlari" orqali jamiyatga qaytarish va bandligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xulosa

O'g'irlik jinoyatlarining umumiy profilaktikasini takomillashtirish faqat texnik masala emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik jarayondir. Xorijiy manba va milliy amaliyot tahlili shuni isbotlaydiki, qachonki profilaktika inspektori aholi ko'z o'ngida "jazolovchi" emas, balki "himoyachi" sifatida namoyon bo'lsa, "o'g'irlikka ko'nikish" sindromi yo'qoladi. O'zbekistonda o'g'irlik profilaktikasining samaradorligi xalqning ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchining qay darajada tiklanishi bilan bevosita o'lchanmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон) <https://lex.uz/docs/6445145> (Мурожаат вақти: 29.11.2025й)
2. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни. (Мурожаат вақти: 29.11.2025й)
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.– Т,»Ўзбекистон»,2017.–48 б. (Мурожаат вақти: 29.11.2025й).
4. 2022 йил 28 январда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. (Мурожаат вақти: 29.11.2025й).
5. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ЁШ АВЛОДНИ ТЕРРОРИЗМ ВА ЭКСТРЕМИЗМ ТАҲДИДЛАРИДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 134-140.
6. Атажанов, Ў. М. (2025). МАЪМУРИЙ НАЗОРАТ ОСТИДАГИ ШАХСЛАР БИЛАН ЯККА ТАРТИБДАГИ ПРОФИЛАКТИКАНИНГ ИЖТИМОИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА ЙЎНАЛИШЛАРИ. Научный Фокус, 3(30), 127-133.
7. Атажанов Ў. М. и др. МАЪМУРИЙ НАЗОРАТ ТИЗИМИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ВА УНИНГ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 119-126.
8. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич, and Ҳамидалиев Асадбек Жасур. "БОЗОРЛАР ҲУДУДИДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 152-162.
9. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ПРОФИЛАКТИКА ОБЪЕКТЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 184-190.
10. Атажанов Ў. М. и др. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ БОЗОР ОБЪЕКТЛАРИДАГИ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 163-171.
11. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ҲАЁТГА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ КРИМИНОЛОГИК САБАБЛАРИ ВА МАХСУС ПРОФИЛАКТИК ТАЪСИР ЙЎНАЛИШЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 191-197.
12. Атажанов Ў. М. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАР //World scientific research journal. – 2023. – Т. 12. – №. 2. – С. 81-89.

13. Атажанов Ў. Шаҳар ҳудудида жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича профилактика инспектори фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишнинг бугунги ҳолати ва ўзига хос хусусиятлари //Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 24-30.
14. Майор А. Ў. М. ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ МАХАЛЛА ФУҚАРОЛАР ЙИҒИНЛАРИДАГИ ҲИСОБОТ БЕРИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 117-121.
15. Атажанов, У. М. (2025). ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ ЦИФРОВОЙ КРИМИНАЛИСТИКИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ ПО ОРГАНИЗАЦИИ И КООРДИНАЦИИ ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 8(5), 127-135.
16. Ганиев Ф. Т., Давлетов Ф. О. У. РАБОТА ИНСПЕКТОРА ПРОФИЛАКТИКИ С БЕЗНАДЗОРНЫМИ И БЕСПРИЗОРНЫМИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПРОБЕЛЫ НА ПРАКТИКЕ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 16. – С. 179-182.
17. Адхамов, Зафар Акбарович. "ШАХСЛАРНИ ЗЎРАВОНЛИК ХУЛҚ-АТВОРИНИ ЎЗГАРТИРИШ БЎЙИЧА ТУЗАТИШ ДАСТУРИДАН ЎТКАЗИШДА ДИНИЙ УЛАМОЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ АҲАМИЯТЛИ ЖИҲАТЛАРИ." THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY 2.20 (2024): 114-117.
18. Адхамов, З. А. (2025). ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ НАЗОРАТ-ЛИЦЕНЗИЯ ҚОИДАЛАРИГА РИОЯ ЭТИЛИШНИ ТАЪМИНЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(2-2), 165-172.
19. Мустофақулов Б. А. Ў., Шодмонов Д. Э. Ў. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ПАТРУЛ-ПОСТ ХИЗМАТИ ВА ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ БЎЛИНМАЛАРИ БИЛАН ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 47-51.